# IMPROVING THE MECHANISM FOR ORGANIZING 5 IMPORTANT INITIATIVES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

**Maxmudova Shoira Rustamovna,**
**Oriental Universiteti,**
email: sh.maxmudova@orientaluniversity.uz

**Annotation.** This scientific work is aimed at increasing the effectiveness of spiritual and educational activities in higher educational institutions to a new level, including the implementation of five important initiatives promoted by President Shavkat Mirziyoyev. The main areas of research work are: the role and tasks of higher education institutions in the implementation of five important initiatives, the conditions and resources necessary for the effective implementation of initiatives, as well as the problems that may arise in this regard and their solutions.

Kalit so‘zlar: Oliy ta'lim, 5 muhim tashabbus, boshqaruv mexanizmi, resurslar, rollar.

**KIRISH.**

**Tadqiqotning obyekti.** Oliy ta'lim muassasasi darajasida ma'naviyatni oshirish, talabalarning shaxsiy o'sishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun amalga oshirilayotgan ma’naviyat ishlarini boshqarish jarayonlaridan iborat.

**Tadqiqotning predmeti.** Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviyat ishlarini boshqarish doirasida belgilangan 5 muhim tashabbusni amalga oshirishda qo‘llaniladigan yangi yondashuvlar, strategiyalar va usullar tashkil qiladi.

dqiqoqt ishining asosiy masalalari quyidagilardan iborat: Ma'naviyat ishlarini boshqarishda hozirgi qiyinchiliklar va kamchiliklar nimada? Bu sohada mavjud bo‘lgan muammolar va ularning sabablari aniqlanishi kerak. Bu tashabbuslar qanday OTMlarda ushbu tashabbuslarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslar (moliyaviy, moddiy, inson resurslari) va tashkilotchilik masalalari qanday? Ushbu tashabbuslarga nisbatan o‘quvchilar, o‘qituvchilar va boshqaruvchilarning qarashlari va munosabati qanday, ularning qarashlari qanday farqlanadi? Madaniy

va ijtimoiy omillar ushbu tashabbuslarni qanday qilib ta'sir qilmoqda va ularni samarali joriy etishga to‘sqinlik qiladigan omillar nima?

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikalar tavsifi.** Tadqiqot jarayonida belgilangan vazifalarni yechimini topish maqsadida quyidagi kompleks nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ekspert baholash, ijtimoiy metodlar (anketa, so‘rovnoma, suhbat, test), muammoga oid hujjatlarning nazariy hamda qiyosiy pedagogik tahlili, ekspert baholash va matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati: Tadqiqot, 5 muhim tashabbusni samarali tashkil etishda qo'llaniladigan amaliy yechimlar va usullarni taqdim etadi. Bu usullar ta'lim muassasalarida ma'naviyat ishlarini boshqarish jarayonini yaxshilashda aniq qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodlar va yondashuvlar ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning jamiyatda to'g'ri yo'nalishda rivojlanishiga hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, shu tariqa, ta'lim sohasidagi ma'naviyat ishlarini takomillashtirishga qaratilgan strategiyalar, metodlar va amaliy yechimlarni nazariy asoslash va amalda qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarni komil insonlar sifatida tarbiyalashga va ularni jamiyatga ijodiy hissa qo‘shishga tayyorlashga yordam beradi.